

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AXLOQIY KAMOL TOPISHIDA HADIS ILMINING AHAMIYATI

Abdushukurova Nazokat Abdug‘affor qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining komil inson bo‘lib tarbiya topishlarida axloqiy sifatlarning o‘rni va bu sifatlarni rivojlantirishda Hadis ilmining ahamiyati haqida.

Kalit so‘zlar: Axloq qoidalari, insoniy fazilatlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, sahih, isnod, muhaddis, Al-jome’ as-sahih, Al-adab al-mufrad, hadis ilmi

Аннотация:

Эта статья посвящена роли нравственных качеств в воспитании учащихся начальной школы как совершенных людей и важности науки о хадисах в развитии этих качеств.

Ключевые слова: Нравственные нормы, человеческие качества, духовно-нравственное воспитание, сахих, иснад, муҳаддисы, аль-Джаме ас-сахих, аль-адаб аль-муфрад, наука о хадисах

Abstract: This article is devoted to the role of moral qualities in the education of primary school students as perfect people and the importance of the science of Hadith in the development of these qualities.

Keywords: Moral rules, human qualities, spiritual and moral education, sahih, isnad, muhaddis, Al-Jame’ as-sahih, Al-adab al-mufrad, science of hadith

Jamiyatning rivojlanishi uchun o‘z sohasida yetuk bilimga ega bo‘lgan, olgan tajribalarini amaliyotda to‘gri qo‘llay oladigan va eng asosiysi jamiyatda axloq qoidalariga amal qiladigan yoshlarga ehtiyoj bor. Mana shunday yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish uchun uzoq yillar davomida shakillangan diniy va madaniy an’analardan, milliy qadryatlardan foydalanish va ular orqali komil inson shaxsini tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi. Ajodolarimiz davr sinovidan o‘tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ulami amalga oshirish usul va vositalarini yaratganlar, shu asosda yoshlarmi ijtimoiy hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. O‘zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha

ta’rif beradi: «Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur»[4]. Axloq me’yori va qoidalari tarixiy taraqqiyot davomida tarkib topib, takomillashib borgan va kishilarda birgalikda yashash sharoitidan, tabiiy ehtyojidan, ijtimoiy manfaatlari va hayotiy talablaridan kelib chiqqan va ular muayyan tarixiy davrdagi kishilarning xatti-harakati, yurish-turishi va boshqalarga bo’lgan munosabatlarida namoyon bo’lgan.

Hadis - islom dini talimoti bo‘yicha Qur’ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi. Islomning ilk davrlaridanoq musulmonlar hadislarga juda katta ahamiyat berishgan. Eshitgan har bir hadisni xatosiz, asl holicha boshqalarga yetgazishga qat’iy rioya qilingan. Bu to‘g‘rida Muhammad(s.a.v.) payg‘ambarning o‘zi musulmonlarni tez-tez ogohlantirib turgan. Hadis mazmuni va iborasini buzib o‘zicha yangi hadis to‘qib tarqatuvchilar qattiq qoralangan. “Ilmning ofati - esdan chiqarmoqlik va ilmgan rag‘bati bo‘lmagan kishilarga o‘rgatib, uni zoye ketkazmoqlikdir”-deyiladi hadislarda [5].

Bolalarda insoniy his-tuyg‘ularni tarbiyalashning asosi kishilarga mehr-muhabbat qo‘yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarini himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o‘z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiyl, halol rostgo‘y bo‘lish kabi odob va axloq qoidalarini o‘z ichiga oladi. Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada, sog‘lom ma’naviy muhit barqaror bo‘lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog‘lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi. Barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida bir qancha madaniy manbalar mavjud. Bular dan Qur’oni Karim, Hadis ilmi Kaykovusning «Qobusnoma», Sa’diyning «Guliston», «Bo‘ston», Amir Temuming «Temur tuzuklari», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muhsiniy»da axloqiy sifatlar o‘z ifodasini topgan. Ma’naviy-axloqiy tarbiya - ta’lim berish bilan bog‘liq bo‘lgani holda, o‘ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning metodlariga ega bo‘lib, maxsus ravishda o‘rganilishi lozim. Hadis ilmi orqali mana shunday usullarni ishlab chiqish bola tarbiyasida maqsadlidir. Hadislarning qimmatli, insoniy va axloqiyligi shundaki, ularda barcha masalalar xolisona ifodalangan [3].

Umuman, hadislardagi fikrlaraing qimmatli tomoni yana shundaki, ular umumbashariydir. Ular biron bir ijtimoiy guruh manfaati nuqtayinazaridan yozilmagan. Bundan tashqari, ular insoniyat ma’naviyati, axloqi, madaniyati taraqqiyotining sarchashmalari, ular rivojining poydevorini tashkil qilganligi bilan ham ardoqlidir. Qolaversa, hadislarning o‘zi ham hikmat, ham ilmdir. Islom olamida Qur’ondan keyingi o‘rinda turuvchi hadislar ishonchli axloqiy manba hisoblanadi. Haqiqiyligi puxta o‘rganib chiqilgan ishonchli hadislar sahih deyiladi. Sahih so‘zining

ma’nosi sog‘lom, to‘g‘ri, xatosiz degani. Hadisni rivoyat qiluvchi kishi isnod, hadislami to‘plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi. Hadislami to‘plash ishlari VIII asrdan boshlangan. Payg‘ambar alayhissalomni ko‘rgan va bilganlardan yozib olingan ma’lumotlarga qaraganda, dastlabki hadis to‘plovchilar ibn Shahob az-Zuhriy, Yahyo ibn Sa’d al-Ansoriy, Ibn Jurayj kabilar bo‘lgan. Dunyoga mashhur muhaddislar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, imom Nisoiy, imom ibn Majj’ Kazviniy, Abu Iso Muhammad as- Samarqandiy, imom at-Termiziylardir. Yuqorida nomlari zikr qilingan muhaddislarning hadis to‘plashdagi xizmatlari juda katta. Ulug‘ alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy birgina «Al-jome’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») asari ustida o‘n olti yil ish olib borgan va olti yuz ming hadisni to‘plab, 7275 tasini tanlab olgan. Shuningdek, «Al-jome’ as-sahih» asaridan odob-axloq mavzuiga bag‘ishlangan hadislarni tanlab olib, alohida kitob holiga keltirgan. Bu kitob Al-adab al-mufrad («Adab durdonalari») deb nomlangan bo‘lib, bu asar 1322 ta hadisni o‘z ichiga olgan [2].

- Garchi Xitoyda bo‘lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo‘minga farzdir.

- Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabitidir.
- Chaqimchilik nima, bilasizlarmi? U — odamlaming gaplarini (ularning o‘zaro munosabatlarini buzish niyatida) bir-birlariga tashimoqlikdir.
- Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so‘ng otangga yaxshilik qil.
- Alloh birodarlariga qovog‘ini solib qaraydigan kishilarni yoqtirmaydi.

Hadislardan foydalanish orqali boshlangich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida quyidagi vazifalami amalga oshiradi:

- a) o‘quvchilarda jamiyatga va Vatanga sadoqatni tarbiyalash;
- b) mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
- c) atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat;
- d) shaxsning o‘ziga, o‘z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash [3].

Axloq-odob insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o‘quvchida jamiyatga bo‘lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo‘lishga, axloqiy ongni, o‘zini o‘zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo‘lgan e’tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Maktab o‘qituvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do‘stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, birovning dardiga darmon bo‘lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o‘z o‘quvchilariga tushuntirishlari darkor. Bu tushuntirishlar hadislar orqali boyitilsa, shaxsning ma’naviyatini yuqori darajaga olib chiqadi.

Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Hadislar har bir shaxsni aqliy, jismoniy jihatdan kamolga yetkazishga oid e’tiqod va iymondan iborat bo‘lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, olivjanob bo‘lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib yeyish, jaholat va jaholatparastlikka yo‘l qo‘ymaslik, o‘z birodarining, qarindosh-urug‘larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrashdan iboratdir. Hadislardan kichik mактаб yoshidagi o‘quvchilar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Маънавият асосий тушунчалар луғати Т.; 2009 йил
2. А.Зуннунов. Ўзбек педагогика тарихи. Т; “Ўқитувчи” 1997
3. Sodiqova, D. (2020). Buyuk allomalarimiz asarlarida oilada bola tarbiyasining ahamiyati haqida qarashlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании.
4. Ibragimov X., Abdullayeva SH. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet.
5. Yo‘ldoshev T.A. Axloq-odobga oid hadis namunalari. tahririda. - T.: «Fan», 1990, 146-b.